

Sarhisob: 2024-yilda kelib tushgan murojaatlar 2023-yilga nisbatan 32,7 foizga kamaygan

// 15.01.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-2024-yilda-kelib-tushgan-murojaatlar-2023-yilga-nis>



2024-yil davomida "O'zkimyosanoat" AJ markaziy apparati va tarmoq korxonalariga jami 1823 ta yozma, og'zaki va elektron shakldagi murojaatlar kelib tushgan. Shundan jismoniy va yuridik shaxslardan bevosita kelib tushgan murojaatlar soni 1495 tani, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasidan kelib tushgan murojaatlar soni esa 328 tani tashkil etadi.

"O'zkimyosanoat" AJ ijro apparati bo'yicha 2024-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 394 ta yozma, og'zaki va elektron murojaatlar kelib tushgan bo'lib, tahlillar 2023-yilning mos davriga nisbatan 32,7 foizga kamayganini ko'rsatadi.

Murojaatlarning 75,4 foizi qanoatlantirilgan, 21,8 foiziga tegishli tushuntirishlar berilgan, 2,8 foizi esa o'rganish jarayonida.

Kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi yani 31,5 foizi Navoiy viloyati, 27,4 foizi Toshkent viloyati, 21,8 foizi Qashqadaryo viloyati, 7,8 foizi Toshkent shahriga, qolgan 11,5 foiz murojaatlar esa boshqa viloyatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, 2024-yil davomida "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati tomonidan umumiy 41 ta sayyor qabullar o'tkazilgan bo'lib, ularda 124 ta murojaat ko'rib chiqilgan. Bu jarayonda 94 ta murojaat ijobiy hal qilinib, qolgan 30 tasiga tushuntirish berilgan. Aksariyat murojaatlarga joyining o'zida yechim topilgan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati